


Foydali qazilmalarni qazish chogʻida yer qaʼrini muhofaza qilishning yagona qoidalari toʻgʻrisida

USLUBIY QOʻLLANMA



“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
Toshkent – 2025



Foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer qa'rini muhofaza qilishning yagona qoidalari to'g'risida uslubiy qo'llanma. – Toshkent. “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y. – ** b.

Mazkur uslubiy qo'llanma O'zbekiston Respublikasida foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida yer qa'rini muhofaza qilishning yagona qoidalarini belgilab beradi. Qo'llanma yer qa'ridan oqilona va xavfsiz foydalanish, konchilik ishlarini olib borishda geologik muhit barqarorligini ta'minlash, foydali qazilma zaxiralarini asrash hamda konchilik faoliyati natijasida vujudga keladigan salbiy geologik va ekologik oqibatlarining oldini olishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma yer qa'ri uchastkalarida qazish ishlarini loyihalash, amalga oshirish va yakunlash bosqichlarida yer qa'rini muhofaza qilish talablarini yagona yondashuv asosida tartibga solishga xizmat qiladi.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

© “Adolat” milliy huquqiy axborot markazi, 2025-y.

**FOYDALANILGAN
NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR**

"O'zbekiston Respublikasining Yer qa'ri to'g'risida"gi Qonuni	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi 92-son "Geologiya-razvedka ishlarini tashkil etish va olib borish tizimi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 4-dekabrda 983-sonli "Yer qa'rini geologik o'rganish, foydalanish va muhofaza qilish sohasidagi boshqaruv va nazorat qilish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori	



Kirish

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda yer qaʼridan oqilona va xavfsiz foydalanish, foydali qazilmalarni qazib olish jarayonida ekologik talablar va sanoat xavfsizligi qoidalariga qatʼiy rioya etilishini taʼminlash boʻyicha keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Konchilik korxonalarida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, yer qaʼri va atrof-muhitga zarar yetkazishni minimallashtirish, konlarning uzoq muddatli barqaror ishlashini taʼminlaydigan meʼyoriy-huquqiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish masalalariga alohida eʼtibor qaratilmoqda. Yer qaʼrini muhofaza qilish boʻyicha yagona yondashuvlarni joriy etish, ishlab chiqarish intizomini kuchaytirish hamda nazorat tizimini samarali yoʻlga qoʻyish bugungi kunda dolzarb vazifa sifatida namoyon boʻlmoqda.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan mazkur uslubiy qoʻllanma foydali qazilmalarni qazish chogʻida yer qaʼrini muhofaza qilishning yagona qoidalarini amaliyotga tatbiq etish tartibini huquqiy va tashkiliy jihatdan izohlab beradi. Qoʻllanmada konchilik subyektlarining yer qaʼrini muhofaza qilish borasidagi majburiyatlari, qazib olish ishlarini loyihalash va olib borish jarayonida bajarilishi lozim boʻlgan ekologik va texnika xavfsizligi talablari, monitoring va hisobot yuritish tartibi, rekultivatsiya va konni tugatish boʻyicha chora-tadbirlar batafsil bayon etiladi.



Umumiy qoidalar



Qoidalar O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar konlarini qazish, foydali qazilmalarni qazish korxonalarini loyihalashtirish, qurish, rekonstruksiya qilish, tugatish va konservatsiya qilishni amalga oshiruvchi barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy hisoblanadi.

Foydali qazilmalar konlarini qazishga “Yer qa’ri to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasi Qonuni talablari bajarilgan va quyidagilar mavjud bo’lgan hollarda yo’l qo’yiladi:

- ✓ foydali qazilmalarni qazib olish uchun yer qa’ridan foydalanish huquqini beruvchi ruxsatnoma;
- ✓ belgilangan tartibda tasdiqlangan foydali qazilmalar zaxiralari hisoblab chiqilgan hisobot;
- ✓ qidirib topilgan konni sanoat yo’li bilan o’zlashtirish uchun qabul qilish-berish dalolatnomasi;

- ✓ yangi korxonalar qurish yoki ishlab turganlarini kengaytirish, rekonstruksiya qilish va texnik jihatdan qayta jihozlash hamda konni ishlatishga davlat ekologiya ekspertizasidan o'tkazilgan tasdiqlangan loyiha;
- ✓ kon ajratilganligini tasdiqlovchi dalolatnoma;
- ✓ yer uchastkasi ajratilganligini tasdiqlovchi hujjat;
- ✓ davlat komissiyasining korxonani qabul qilish yoki uning bir qismini foydalanishga qabul qilish to'g'risidagi dalolatnomasi;
- ✓ kon ishlarini rivojlantirish rejasi;
- ✓ qidirib topilayotgan quduqlarning kerni va keyingi geologik o'rganishlar hamda konni qazish uchun zarur namunalarning dublikatlari.



Bilib oling!

Foydali qazilmalar qazib olish uchun yer qa'ri kon ajratmasi ajratish dalolatnomasini tasdiqlovchi ruxsatnoma va dalolatnomaga asosan foydalanishga beriladi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxonalarni loyihalashtirish, qurish va foydalanishga topshirishga qo'yiladigan asosiy talablar



Foydali qazilmalarni qazib olish va mineral xom ashyoni qayta ishlash korxonalarini loyihalashtirish tasdiqlangan zaxiralar va mo'ljallanayotgan qurilish uchastkasida texnika xavfsizligi va hududning ekologik holatini hisobga olib yer qa'rining o'rganilishi asosida amalga oshiriladi.



KORXONA JOYLASHADIGAN JOY —

foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxona qurilishi uchun maydon O'zbekiston Respublikasi yer osti boyliklari to'g'risidagi qonun hujjatlariga, yer, suv to'g'risidagi qonunlarga va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq, shuningdek, qurilish bo'yicha yo'riqnomalar talablariga muvofiq tanlanadi.

Foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxonalar joylashadigan joylar loyihalash ishlari boshlangunga qadar mahalliy hokimiyat organlari, konchilik munosabatlari sohasidagi maxsus vakolatli boshqaruv organlari, boshqa manfaatdor organlar bilan kelishiladi.



LOYIHALASH TASHKILOTI —



bosh loyihachi, zarur hollarda maxsus loyihalash va qidiruv tashkilotlarini jalb etib buyurtmachining topshirig'iga binoan asoslovchi hisob-kitoblar, foydali qazilmalarni qazib olish korxonasini qurish uchun tanlangan turli maydonlarda joylashtirishning texnik-iqtisodiy qiyoslash variantlarini amalga oshiradi va oqilona variant bo'yicha taklif tayyorlaydi. Bu materiallar va takliflar hajmi hamda tarkibi obyektlarning murakkabligi bilan belgilanadi va konlardan, qazib olinadigan foydali qazilmalardan oqilona, kompleks foydalanish va yer qa'rini muhofaza qilish bo'yicha mo'ljallanayotgan qarorlarning samaradorligi to'g'risida xulosalar tayyorlash uchun yetarli bo'lishi lozim.



Asoslovchi hisob-kitoblar, foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxonalarni joylashtirish variantlarini texnik-iqtisodiy qiyoslash va oqilona variant bo'yicha takliflar bilan birgalikda materiallarni loyihalash tashkiloti —



bosh loyihachi O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi, Inspeksiya va Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasiga xulosa berish uchun jo'natadi, ularning vakillari korxona qurilishi uchun maydoncha tanlashda ishtirok etishlari kerak.

Foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxona qurilishi uchun maydon tanlash uchun buyurtmachi tomonidan belgilangan tartibda komissiya tuziladi, unda O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi va Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi vakillari albatta ishtirok etishlari zarur.

Foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxona qurilishi uchun maydon tanlash to'g'risidagi (komissiyaning barcha a'zolari imzolangan) dalolatnoma belgilangan tartibda tasdiqlanadi va u foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxona joylashadigan joy kelishilganligi to'g'risidagi hujjat hisoblanadi.

Foydali qazilmalarni qazib oluvchi korxona qurilishi uchun maydon tanlangan taqdirda buyurtmachi loyihani ishlab chiqish boshlanguniga qadar belgilangan tartibda foydali qazilmalar joylashgan joylarda imorat qurishga ruxsatnomani rasmiylashtirishi lozim.

Korxona loyihasi, shu jumladan, konni tajriba-sanoat yo'li bilan qazish loyihasi O'zbekiston Respublikasi qonunlari, loyihalash va qurish bo'yicha amaldagi normativ hujjatlar, xavfsizlik va texnik foydalanishning tarmoq normalari va qoidalari talablariga muvofiq bo'lishi kerak.

Korxona loyihasi va konni tajriba-sanoat yo'li bilan qazish loyihasi yer qa'ridan foydalanuvchi tomonidan ishlab chiqiladi va "Litsenziya" axborot tizimi orqali Inspeksiya va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasiga kelishish uchun taqdim etiladi.

```
graph TD; A[Korxona loyihasi va konni tajriba-sanoat yo'li bilan qazish loyihasi yer qa'rining muhofaza qilinishini ta'minlash qismi bo'yicha —] --> B[Inspeksiya bilan va sanoat xavfsizligini ta'minlash qismi bo'yicha —]; B --> C[Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi bilan kelishiladi.];
```

Korxona loyihasi va konni tajriba-sanoat yo'li bilan qazish loyihasi yer qa'rining muhofaza qilinishini ta'minlash qismi bo'yicha —

Inspeksiya bilan va sanoat xavfsizligini ta'minlash qismi bo'yicha —

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi bilan kelishiladi.

Qo'mita va Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Sanoat, radiatsiya va yadro xavfsizligi qo'mitasi taqdim etilgan materiallarni bir vaqtning o'zida 10 kun muddatda ko'rib chiqadi va korxona loyihasi va konni tajriba-sanoat yo'li bilan qazish loyihasini o'z elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlab, "Litsenziya" axborot tizimi orqali yuboradi.

Qurilishi (rekonstruksiya qilinishi, kengaytirilishi) tasdiqlangan loyihaga muvofiq tugallangan va foydalanishga tayyorlangan korxonalar buyurtmachi tomonidan davlat qabul komissiyalariga qabul qilish uchun tavsiya etilishi kerak.

Davlat qabul komissiyalarining tarkibi, ularni tayinlash va ish tartibi qonunchilik bilan belgilanadi.

Qurilishi tugallangan obyektlarni davlat qabul komissiyalari tomonidan foydalanishga qabul qilish dalolatnomalar bilan rasmiylashtiriladi.

Loyiha qarorlarining qaziladigan kon va qazib olinadigan foydali qazilmalardan oqilona, kompleks foydalanishni, yer qa'ri hamda atrof tabiiy muhit muhofaza qilinishini ta'minlash qismidagi asosiy ma'lumotlar davlat ekologiya ekspertizasidan o'tishi lozim bo'lgan loyihaning tarkibidagi maxsus "Yer osti boyliklari va atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish" bo'limida aks ettirilishi zarur.

Kon ishlarini geologik va marksheyderlik jihatidan ta'minlash va zaxiralarni hisobga olish



Foydali qazilmalar konlarini qazishni, foydali qazilmalar qazish korxonalarini loyihalash va qurishni amalga oshiruvchi vazirliklar, idoralar, korxonalar va boshqa yer qa'ridan foydalanuvchilar geologik va marksheyderlik xizmatlariga ega bo'lishlari kerak.

Foydali qazilmalarni qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun qazuvchi korxonalarda, agar ushbu korxonada geologiya-marksheyderlik xizmatlari mavjud bo'lmasa, geologiya-marksheyderlik yuqori idora tomonidan markazlashtirilgan tartibda amalga oshirishga yo'l qo'yiladi.

Ushbu xizmatlarning tuzilmasi, vazifalari, majburiyatlari va huquqlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadigan idoraviy geologik xizmat to'g'risidagi namunaviy nizom, shuningdek, Inspeksiya bilan kelishgan holda vazirliklar va idoralar tomonidan tasdiqlangan ko'rsatib o'tilgan xizmatlar to'g'risida tarmoq nizomlari bilan belgilanadi.

Korxonalar zarur hollarda qaziladigan konlarning mineral xom ashyo negizini mustahkamlash va o'rganilgan zaxiralarning ishonchlilikini oshirish maqsadida dastlabki qidiruvni va ekspluatatsiya qidiruvini amalga oshirishlari lozim.

KORXONALAR:

- ✓ konlarning murakkab uchastkalarida qayta ishlashning kon-geologiya sharoitlarini o'rganish maqsadida geologiya ishlarini amalga oshirishlari;
- ✓ foydali qazilmalar konlaridan yanada to'laroq va kompleks foydalanish, kon ishlarini samarali va xavfsiz amalga oshirish, yer qa'rini, binolar, inshootlar va tabiat obyektlarini kon qazish ishlarining zararli ta'siridan muhofaza qilishni ta'minlash maqsadida marksheyderlik ishlarini bajarishlari;
- ✓ belgilangan geologiya va marksheyderlik hujjatlarini yuritishlari;
- ✓ foydali qazilmalar zaxiralarining holati va harakati, nobud bo'lganligi va sifatsizlanishini hisobga olishi, shuningdek, yo'l-yo'lakay qazib olinadigan, vaqtincha foydalanilmaydigan foydali qazilmalar va foydali komponentlar bor bo'lgan ishlab chiqarish chiqitlarining hisobga olinishini ta'minlashlari zarur.

Qazilayotgan kon doirasidagi geologiya ishlari tasdiqlangan loyiha, tarmoq normativ hujjatlari va ko'rsatmalariga muvofiq, shuningdek, DKZ hamda ko'rsatmalari va ishlarni xavfsiz olib borishga oid qoidalar talablariga rioya qilingan holda olib boriladi.

Rejalashtirish va foydalanish maqsadida qidirish Inspeksiya bilan kelishilgan kon ishlarining yillik rejalari bo'yicha amalga oshiriladi.

Konlarni yoki ularning ayrim uchastkalarini dastlabki qidirishda va foydalanish maqsadida o'rganish korxona yoki korxona tomonidan berilgan geologik topshiriq bo'yicha ixtisoslashtirilgan tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

Konlarning yetarlicha puxta o'rganilmagan qismlarini, (yonboshlar, chuqur gorizontlar, alohida uchastkalar) puxta o'rganib chiqish bosqichma-bosqich, korxonalar loyihalari hamda kon ishlarini rivojlantirish rejalari bilan bog'liq holda amalga oshirilishi kerak.



Kon ishlarini rivojlantirishni rejalashtirish va loyihalashtirish



Kon ishlarini rivojlantirishning istiqbolli rejalari quyidagilarni nazarda tutishi lozim:

- konni puxta o'rganib chiqish va foydalanish maqsadida qidirish;
- konni yoki uning bir qismini qazishning qazish chog'ida yer qa'ridan foydali qazilmalarni maqbul darajada ajratib olishni ta'minlovchi va boy uchastkalarni tanlab qazishni, konning sanoat ahamiyatini pasaytirishni va uni qazish sharoitlarini qiyinlashtirishni istisno etuvchi rejaliligi;
- qo'llanilayotganlarni takomillashtirish va qazishning yangi istiqbolli yo'llari va tizimlarini, shuningdek, yer qa'ridan foydali qazilmalarni ajratib olish darajasini oshirish, mehnat xavfsizligini, binolar, inshootlar va atrof tabiiy muhitni kon ishlarining zararli ta'siridan muhofaza qilishni yaxshilash maqsadida qazib olishning yangi texnologiyalarini joriy etish;
- ochilgan, tayyorlangan va qazishga tayyor bo'lgan xaxiralarni korxonaga belgilangan topshiriqlar (normativlar)ga muvofiq to'ldirish

- balansdan tashqari va foydali qazilmalarning ilgari konservatsiya qilingan balansdagi zaxiralarini saqlash yoki ularni ishlatishga qo'shish;
- ochilgan va aralash jinslardan foydalanish;
- texnika xavfsizligi, konni yoki uning bir qismini foydali qazilmalar sifatini va konning sanoat ahamiyatini tushiruvchi yoki uni qazishni qiyinlashtiruvchi suv toshib ketishi, suv o'tishi, yong'inlar va boshqa omillardan muhofaza qilish choralari;bo'shliqlarni to'ldirish tartibi va muddatlari;
- tasdiqlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilishi zarur.



Tayyorlash va tozalash ishlarini ishlab chiqish tizimlari, texnologik sxemalari va qazilgan makonni boshqarish yo'llari, qabul qilinadigan kon ishlarini rivojlantirish rejalarida shuningdek quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- jismlardan foydali qazilmalarni minimal konditsion quvvatlar va cheklangan sifat bilan ajratib olish;
- qazib olish chog'ida nurash, oksidlanish, o'zidan o'zi yonish va shu kabilar natijasida foydali qazilmalar sifati pasayishining oldini olish;

- vaqtincha konservatsiya qilinadigan zaxiralarni muhofaza qilish;
- turli maqsadlardagi seliklarda nobudgarchiliklarni istisno qilish yoki kamaytirish.



Bilib oling!

Konni yer osti usulida qazishda tayyorlov qazilmalar joylashishi va yoʻnalishi zaxiralarni eng koʻp ajratib olish va kon qazilmalarini samarali saqlab turish hisobga olingan holda rejalashtiriladi. Kon qazilmalarining foydali qazilma jismlari konturidan tashqarida joylashishi varianti albatta koʻrib chiqiladi.

Foydali qazilmalarning nobudgarchiligi va sifati pasayishi normativlari kon ishlarini rivojlantirishning yillik rejalarida hisoblab chiqiladi va qazilma birliklarning barcha asosiy va qazish uchun loyihada nazarda tutilgan ular bilan joylashgan foydali qazilmalari boʻyicha kon-geologiya sharoitlarini aniq hisobga olgan holda koʻrib chiqiladi va belgilanadi.



Murakkab kon-geologik sharoitlardagi konlarni qazishga qoʻyiladigan qoʻshimcha talablar



Murakkab kon-geologik va boshqa tabiiy sharoitlardagi konlarga quyidagi konlar kiradi:

- ✓ gaz, qoʻqqisdan otilish va togʻ zarblari boʻyicha xavfli boʻlgan konlar;
- ✓ oʻz-oʻzidan yonishga moyil foydali qazilmalar;
- ✓ suvda oson eriydigan foydali qazilmalar;
- ✓ sochmalar;
- ✓ qimmatbaho, yarim qimmatbaho, zebu-ziynat tayyorlanadigan toshlar va pyezo-optika xom ashyosi;
- ✓ havzalar tubida, hovuzlar hamda suv oqimlari tagida, oʻpirilishlar, koʻchki, sel, karst xavfi boʻlgan va yuqori seysmik holatdagi zonalarda joylashgan konlar;
- ✓ katta chuqurliklarda, oʻz-oʻzidan oʻpirilishga moyil boʻlgan jinslarda, shuningdek, tarkibida tez maʼdanlashadigan suv boʻlgan jinslarda joylashgan konlar.

ESLAB QOLING!

Ko'plab suv bosgan, quyuq oqova hamda karst bo'shliqlari mavjud bo'lgan foydali qazilmalar konlarida suvli gorizont va suv bosgan jinslarning to'satdan suv toshishiga hamda foydali qazilmalarning asossiz nobudgarchiligiga olib keluvchi surilishlarga sabab bo'luvchi kon ishlari texnologiyasini qo'llash taqiqlanadi.

O'z-o'zidan yonishga moyil foydali qazilma va jinslar konlarini qazish Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan maxsus yo'riqnomalarga muvofiq amalga oshirilishi zarur.

Maydalangan foydali qazilma uzoq vaqt tozalangan bo'shliqda qoldiriladigan qazish tizimini qo'llash, shuningdek, maydalangan qazilmalarni qazilgan bo'shliqda qoldirish taqiqlanadi.

Yer osti usulida qazib olinadigan suvda tez eriydigan foydali qazilmalar konlarida kon qazilmalariga suv o'tib ketishini bartaraf etuvchi tadbirlar amalga oshirilishi lozim. Bunday foydali qazilmalarni shaxta usulida qaziladigan konlar maydonida yer osti usulida tanlab eritmaga o'tkazish usulida qazib olish taqiqlanadi.

Kon ishlari jarayonida xalq xo'jaligi yoki ilmiy qiymatga ega bo'lgan qimmatbaho, yarim qimmatbaho va zebu-ziynat yasaladigan toshlar, optik va pyezo elektrik kristallar, muzey va kolleksiya namunalari, druzlar yoki boshqa tabiat mahsulotlari namoyon bo'lgan taqdirda korxona rahbariyati ularni saqlash va keyinchalik qazib olinishi uchun sharoitlar yaratish uchun javob beradi.



YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Qonunchilik talablarini buzganlar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi

Foydali qazilmalarni qazish chog'ida yer qa'rini muhofaza qilishning yagona qoidalari to'g'risida uslubiy qo'llanma

Kompyuterda sahifalovchi:

Jamshid G'ofurov

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi.

Nashr. lis. AI № 032, 29.10.2019.

Toshkent shahri, Amir Temur shohko'chasi, 19-uy.

Telefonlar: (99871) 233-28-18, (99871) 280-55-47

Veb sayt: www.adolatmarkazi.uz

e-mail: info@adolatmarkazi.uz

Qog'oz bichimi 60x841/16. “Calibri” garniturası.

Ofset usulida chop etildi. Bosma tabog'i *

Nashriyot hisob tabog'i **. Adadi ** nusxa.

***-buyurtma. Narxi shartnoma asosida.